

**1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi**

1. Qaysi voqeadan so'ng Jaloliddinning harbiy kuchi kuchsizlanib qoladi?

- A) Parvon dashtidagi g'alabadan so'ng
- B) Valiyon qal'asi yonida bo'lgan jangdan so'ng
- C) Sind daryosi bo'yida bo'lgan jangdan so'ng
- D) "Cho'li Jaloliy" da bo'lgan jangdan so'ng

2. Baqtriyadan tashqari Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga yana qaysi o'lkalar kirgan?

- A) Xorazm va Marg'iyona
- B) So'g'd va Xorazm
- C) Xorazm va Parfiya
- D) Marg'iyona va So'g'diyona

3. Germaniyada imperatorlikni boshlab bergan hukmdor qaysi suloladan bo'lgan?

- A) Iyuksemburglar
- B) shtaufenlar
- C) saksoniyaliklar
- D) frankoniyaliklar

4. Ajnabiylar Spartada qanday mavqega ega edi?

- A) ular spartaliklarga qarindosh bo'lishgan
- B) ular aslida spartaliklar bo'lishsada ulardan qul sifatida foydalanishgan
- C) ajnabiylar Spartaga kiritilmagan
- D) ular mamlakat ishlarida ishtiroki uchun maosh to'lashgan

5. Oltin O'rda xonligida tashqi siyosat masalalari bilan kimlar shug'ullangan?

- A) Bosqoq, vazir, no'yon
- B) Xon va ulusbegi, no'yon
- C) Xon, xonning yaqin maslahatchilari, beklarbegi
- D) Bosqoq, no'yon, ulusbegi

6. XIV asrda Chig'atoy xonlaridan kim birinchi bo'lib o'z qarorgohini Movarounnahr ga ko'chirgan?

- A) Kebekxon
- B) Munke
- C) Tug'luq Temur
- D) Abulxayrxon

7. Qadimgi hindlarning diniy e'tiqodiga oid quyidagi fikrlardan qaysi birida xatolik mavjud?

- A) Hindlar ayrim xudolarni yovvoyi hayvonlar timsolida tasavvur qilganlar
- B) Bosh xudolaridan biri-Ganesha donishmandlik xudosi bo'lgan
- C) Buddaviylik dini oldingilaridan insonning mavqei tabaqalarga ham, jamiyatdagi maqomiga ham bog'liq bo'lmasligi bilan farqlanadi
- D) Quyosh xudosi osmondagi suvni tutqunlikdan xalos aylagach, yer yuzida qurg'oqchilik tugadi

8. Quyidagi qaysi shahar savdodan kelgan daromad hisobiga Yevropaning eng boy shahriga aylanadi?

- A) Florensiya
- B) Rim
- C) Venetsiya
- D) London

9. Florensiyada shahar hokimlari to'plangan boyliklar hisobidan me'morchilik obidalarini bunyod ettirib, qaysi sohalarni yuksaltirganlar?

- A) binokorlik va haykaltaroshlik
- B) haykaltaroshlik va rassomchilik
- C) savdo-sotiq, me'morchilik
- D) haykaltaroshlik va savdo-sotiq

10. O'rta asrlarda Yevropada shaharlarning yuksalishi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishidan tashqari qaysi hududlar madaniyati bilan tanishuv yevropaliklar dunyoqarashi, bilim doirasini kengaytiradi?

- A) Vizantiya va Arab xalifaligi
- B) Rim va Vizantiya
- C) Yunonlar va Arab xalifaligi
- D) O'rta Osiyo va Hindiston



**2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi**

11. Shayboniylar davrida oliy hukmdor xon davlat hududlarini sulola xonadoni a'zolariga bo'lib berishi qanday oqibatlarga olib keldi?

- 1) markaziy hokimiyatning zaiflashuviga;
  - 2) markaziy hokimiyatning kuchayishiga;
  - 3) viloyat hokimlari hokimiyati kuchayishiga;
  - 4) viloyat hokimlari hokimiyati kuchsizlanishiga;
  - 5) siyosiy tarqoqlikning hukm surishiga;
- A) 1, 3, 4      B) 2, 3, 4      C) 1, 2, 3      D) 1, 3, 5

12. Quyidagilardan noto'g'ri mulohazani aniqlang.

- A) Muhammad Shayboniyxon tashkil etgan davlat hududining chegarasi har doim ham muqim bo'lmagan.
- B) Shayboniyxon hukmdorligi davrida uning davlati tarkibiga Movarounnahrda tashqari Eron va Xuroson hududlari ham kirgan.
- C) Shayboniyxonning o'limidan so'ng Xorazm butunlay qo'ldan chiqdi.
- D) Abdullaxon II davrida qisqa muddatga bo'lsa-da, xonlik hududi yana kengaydi.

13. Quyidagi qaysi omil ashtarxoniylar davrida markaziy hokimiyatni deyarli yo'qqa chiqardi?

- A) viloyatlarda butun hokimiyat viloyat hokimlari va ularni qo'llab-quvvatlovchi mahalliy kuchlar qo'lida to'planishi
- B) Markazda butun hokimiyat dargohda to'planib qolishi
- C) Ashtarxoniylar davrida devonlar tizimi deyarli barbod bo'lishi
- D) devonlar mahalliy hokimliklarni boshqarish imkoniyatini qo'ldan chiqarishi

14. Shayboniylar davriga oid xato berilgan ma'lumotni aniqlang.

- A) Shayboniylar ham o'z davriga yarasha qudratli qo'shin tuzishga muvaffaq bo'lganlar.
- B) Qo'shin o'sha davrda foydalanilgan harbiy qurol-yarog'larning barcha turidan mohirona foydalana olgan.
- C) Qo'shin tuzilishi va uning harbiy yurishlari davridagi harakati tizimli va tartibli bo'lgan.
- D) Qo'shin tarkibiga ko'ra, asosan, qalb, o'ng va chap qanot askarlardan iborat edi.

15. Toshidan o'ta oddiy mehnat qurollari yasashni bilgan eng qadimgi odamning suyak qoldiqlari topilgan hududni aniqlang?

- A) shimoliy va sharqiy Afrika
- B) sharqiy va g'arbiy Afrika
- C) janubiy va sharqiy Afrika
- D) g'arbiy va shimoliy Afrika

16. Qadimgi spartaliklar kuchli davlat tuzish uchun qanday shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratganlar?

- 1) hamma amal qilishi lozim bo'lgan qat'iy intizom;
  - 2) xalqaro savdo yo'llariga egalik qilish;
  - 3) aniq rejalashtirilgan turmush tarzi;
  - 4) tinimsiz harbiy yurishlarni olib borish;
  - 5) yengilganlarga qarshi shafqatsiz zo'ravonlik;
  - 6) mustahkam qal'a va saroylar qurish.
- A) 1, 2, 5      B) 2, 3, 6      C) 1, 3, 5      D) 2, 3, 4

17. Qadimgi yunonlar orasida dengizchilik rivoj topishiga imkon yaratgan omillarni aniqlang.

- A) Yelkanlardan foydalanib olis sayohatlarga – Misrga hamda O'rtayer va Qora dengiz hududlariga suzib borishlari;
- B) Qadimgi Yunonistonning Bolqon yarim oroli va O'rta yer dengizi hududlarida joylashganligi;



- C) O'rmonlarning kamligi va mamlakatning tog'lar bilan o'ralganligi;  
D) Egey dengizidagi ko'p sonli katta-kichik orollar, qulay dengiz qirg'oqlarining mavjudligi.
18. XII asr o'rtalarida Yevropa me'morchiligida gotika uslubi qayerda vujudga kelgan?  
A) Janubiy Fransiyada  
B) Shimoliy Vizantiyada  
C) Shimoliy Fransiyada  
D) Janubiy Vizantiyada
19. Amir Temur qaysi xalqlar tarixini chuqur o'rgangan?  
A) turk, arab, fors  
B) rus, arab, tojik  
S) fransuz, ingliz, nemis  
D) yapon, xitoy, koreys
20. Ispan tarixchisi Pero Meksika tomonidan Amir Temur hayotiga bag'ishlab yozilgan asarni ko'rsating.  
A) "Buyuk Temur tarixi"  
B) "Skifiyalik Tamerlanning ulug'vorligi"  
C) "Amir Temur hikmatlari"  
D) "Temur tuzuklari"
21. Jaloliddin Manguberdi qaysi davlatlar bilan munosabatni yaxshi o'rnatib, mo'g'ullarga qarshi ittifoq tuzadi?  
A) Tabariston, Damashq, Misr  
B) Tatariston, Ozarbayjon, Gurjiston  
C) Turkiya, Eron, Misr  
D) Ko'niya, Jazira, Eron
22. XIX asrning so'nggi choragida AQSh iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan o'sishiga sabab nima?  
A) XVIII asrdagi barqaror iqtisodiy o'sish  
B) latifundiyalarning bekor qilinishi  
C) dunyoning turli burchaklarida ulkan mustamlakalarning qo'lga kiritilishi  
D) AQShning dunyo imperiyasiga aylanishi
23. Qadimgi davrda yunon shaharlarining ko'pchiligi qay tarzda tashkil topgan?  
A) koloniyalarning o'zlashtirilishi natijasida  
B) koloniyalarning birlashtirilishi natijasida  
C) bir qancha manzilgohlarning birlashishi yo'li bilan  
D) uzoq davom etgan qonli urushlardan keyin
24. Qaysi voqealar Xorazmshohlar va Chingizxon davlatlari o'rtasida savdo aloqalari hamda elchilik munosabatlari tamomila uzilganini bildirar edi?  
A) Chingizxon tomonidan jo'natilgan karvonni talanishi va Chingizxon elchisini Xorazmshoh tomonidan o'ldirilishi  
B) Chingizxon Sulton Muhammaddan karvonni talagan O'tror hokimini tuttirib, uning ixtiyoriga jo'natishni talab qilganligi  
C) Sharqiy Turkistonni Chingizxon tomonidan bosib olinishi  
D) Chingizxonning Xorazmshohni o'z og'li sifatida tilga olishi
25. Eftaliylar davlatida qanday omil mamlakatda dehqonchilik, sun'iy sug'orish, hunarmandchilik, bog'dorchilik, chorvachilik ravnaq topishiga asos bo'lgan?  
A) Mamlakatda qisman tinchlik o'rnatilganligi  
B) Savdo-iqtisodiy munosabatlarning izchil yo'lga qo'yilishi  
C) Qo'shni davlatlar bilan manfaatli hamkorlik aloqalari  
D) Hukmron sulola tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasida



**3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi**

26. Nechanchi yilda Shotlandiya Angliyaga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yuboradi?
27. Qaysi hudud orqali O'rta Osiyoga budda dini kirib kelgan?
28. Mahalliy amaldorlar tomonidan soliqlarni bir yo'la to'la to'lab yuborib, so'ngra aholidan yig'ib olish tartibi qanday nomlangan?
29. Ulug'bek rasadxonasiga ulkan o'lchov asbobi - sekstant o'rnatish ishlariga boshchilik qilgan allomani aniqlang.
30. Lyudovik XVI ning qatl etilishi qaysi davlatlarni Fransiyaga qarshi urushga chorladi?
31. 1415-yilda Azenkur jangida kimlar to'qnashgan?
32. Xitoy imperatori qo'shinlari 640-yilda Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan Gaochan davlatini mag'lub etganidan so'ng kimlarga qarshi uzoq yillar davom etgan urushlarni boshladi?
33. Amir Temur Xuroson va Seistonni kimga bergan?
34. Kim o'zini shoir emas adab muallimi deb hisoblagan?
35. XVII asrda Tayvan orollarining bir qismi kimlar tomonidan bosib olingan?
36. Xitoyda qaysi sulola davrida Tasviriy san'at akademiyasi qayta tiklangan?
37. XIX asr oxirida Turkistonda uyezd politsiyasi boshlig'i qanday nomlangan?
38. Boyshayx qaysi qavmdan bo'lgan?
39. Karl Burgundskiy qaysi tashkilotga asos solgan?
40. Quyidagi qaysi qo'rg'on Toshkent darvozasi deb nom olgan?

